
Qabul qilindi: 21-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 25-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 29-sentabr 2026-yil

SHOIR FANO TURKIY DEVONI QO‘LYOZMALARINING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Eshonqulova Shahnoza Baxtiyor qizi
Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi
shahnozaeshonqulova02@gmail.com




Annotatsiya: Ushbu maqola mumtoz adabiyotimizda munosib iz qoldirgan Mirzo Siddiq Fano turkiy devoni qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlandi. Qo‘lyozma nusxalardagi she’riy janrlar va ularning miqdori, ushbu nusxalar o‘rtasidagi matniy tafovutlar aniqlandi. Turkiy devonlarga kiritilgan g‘azallarning alifbo tartibidagi joylashuvi jadval asosida ko‘rsatib berildi. Shu bilan birga g‘azallarning qiyosiy tekstologik tadqiqi amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: nazm, matla, maqta, muxammasot, g‘azaliyot, ruboiyot, mug‘anniynoma, chistoniyat, tekstologiya, kotib, zullisonayn, qo‘lyozma, toshbosma, adabiy meros.

O‘zbek mumtoz adabiyotining muhim manbalaridan biri bo‘lgan devonlar ko‘pincha bir nechta qo‘lyozma nusxalarda bizgacha yetib kelgan. Ushbu nusxalar orasida matniy tafovutlar mavjud bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish matnning asl holatini tiklash, muallif ijodini to‘g‘ri talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tekstologik tadqiqotlar matnshunoslik fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qo‘lyozmalarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, har bir yodgorlik matnida muallif asari bilan bir qatorda uni ko‘chirib kitobat qilgan kotib va xattotlarning ham muayyan darajadagi shaxsiy qarashlari ham aks etadi. Bu ko‘p hollarda ularning nusxa ko‘chirishlari jarayonida matnga o‘z didlari va dunyoqarashlari nuqtai nazaridan erkin yondoshuv natijasi o‘laroq yuzaga chiqadi. Shu sabab yodgorliklar matni ustida matniy tadqiqotlar olib borishdan avval shu yodgorlikning barcha mavjud

qo‘lyozmalarini yig‘ishimiz, ko‘chirilish davri va matniy to‘liqligiga qarab tasniflashimiz va shundan keyingina ularning tarixini kuzatishimiz lozim. Chunki har bir qo‘lyozma birinchi navbatda o‘z davrining tarixiy yodgorligi sifatida o‘ziga xos bo‘lgan muayyan tarixga ega.

Ayni davr o‘zbek matnshunoslari uchun nazariy manbalardan biri bo‘lgan “O‘zbek matnshunosligi qirralari” kitobining mualliflari matnshunosligimizda qo‘llab kelingan o‘n yettita tadqiq usulini keltirib, ularning har biriga izoh berganlar. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ishda matniy tafovutlarni va ko‘chirishdagi xatoliklarni tahlil qilish, qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, qo‘shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash, tekstologik belgilarni aniqlash, matnni tiklash (rekonstruktsiya), atributsiya va antiteza kabi usullardan foydalanildi.



Matnshunos olimlar Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, R.Zohidov o‘zining bir qator ilmiy maqolalarida matniy tadqiqning ilmiy tadqiqotlar ichida alohida va juda qiyin shakli ekanligini ta’kidlab, ilmiy adabiyot tarixini yaratish uchun asosiy manba bo‘lgan qo‘lyozmalarni har tomonlama to‘liq o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, tip va uslubini tadqiq qilish lozimligini bir necha bor ta‘kidlab o‘tgan. Mazkur tadqiqot davomida ushbu fikrlarga amal qilgan holda qo‘lyozmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilindi.

Mirzo Siddiq devon nusxalari bo‘yicha hozirga qadar bir qator tadqiqotlar olib borilgan ammo ularning nashr varianti uchramaydi. Bir asarning bir nechta nusxada mavjud bo‘lishi matnning turli davr va hududlarda ko‘chirilganini ko‘rsatadi. Kotiblar saviyasi, yozuv an’analari va davr talablari nusxalar o‘rtasidagi farqlarni yuzaga keltiradi. Devon qo‘lyozmalarni o‘zaro qiyoslash orqali esa matniy-qiyosiy tahlil qilish va eng ishonchli matnni aniqlash mumkin. Shu xususdan dastlab devon tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Devon bu biron shoirning she’rlari radiflariga ko‘ra alifbo sirasi bilan tartib berilgan to‘plam tarzida izohlanadi. Sharq mumtoz adabiyotida devonchilik an’ana sifatida milodiy IX-XI asrlarda shakllangan va XII asrga kelib bir qancha namunalari paydo bo‘lgan. Keyinchalik, XV asrga kelib, Alisher Navoiy 17 ta lirik janrni qamrab olgan mukammal bir


devon tuzdi va o‘ziga xos xususiyatlarni asoslab berdi. Devon va devonchilikni tom ma’noda qo‘lyozma manbalar asosida muayyan tartibda tadqiq qilish kunning dolzarb masalalaridandir. Shunga ko‘ra, XIX-XX asrlarda Qo‘qon va Istaravshan adabiy muhitida tuzilgan Fano devoni qo‘lyozmalari tahlilini amalga oshirish dolzarbdir.

Har qanday asarning manbalararo matniy-qiyosiy tahlilini amalga oshirish va muallif variantiga yaqin mukammal variantini tiklash matnshunoslikning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Shu paytgacha Fano ilmiy faoliyati xususida maxsus maqolalar e’lon qilingan bo‘lsa-da, shoir she’rlari matniy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan. Shoirning XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko‘chirilgan devon qo‘lyozmalari, qo‘lyozma bayozlarga kiritilgan hech bir she’ri hali joriy imloda nashr etilmagan. Shu jihatdan shoir ijodini o‘rganish va joriy imloga tabdil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoirning uchta devon qo‘lyozmalari orasidan (7025/II, 7015/V, 1030/III) eng ishonchli nusxani aniqlashda ularni xillash jarayoni amalga oshirildi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bu qo‘lyozmalarning muallif nusxasi ya’ni dastxat matni ham bor, lekin u Tojikiston Milliy Fanlar Akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari xazinasida 468-raqam ostida saqlanmoqda.

7025/II raqamda saqlanayotgan qo‘lyozma 1868-69-yillarda muallif hayotlik paytida nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Kotibi ma’lum emas. 7015/V raqamli qo‘lyozma esa 1902-1903-yillarda Mullo Otajon bin Mullo Muhammad Karim Boqchali tomonidan ko‘chirilgan. 1030/III raqamli qo‘lyozma esa Damullo Muhammad Amin Manqitli tomonidan 1906-yil 31-iyulda yakunlangan. 7015/V va 7025/II raqamli qo‘lyozmalardagi turkiy devonlarda g‘azallar(131 ta g‘azal) va boshqa janrdagi she’rlar hajmi deyarli bir xil. 7015/V raqamli nusxa biroz vaqt keyin yozilganini hisobga olganda 7025/II raqamli qo‘lyozma asosida ko‘chirilgan deb taxmin qilish mumkin. Lekin 1030/III raqamli nusxada 140 ta g‘azal mavjud. Ushbu qo‘lyozmalarda she’rlarning qaysi manbalardan ko‘chirilganligiga oid ma’lumot uchramaydi.

Asosiy tayanch manba sifatida olingan 7015/V raqamli qo‘lyozmada kotib tomonidan bir qator xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan, ularning ba’zilariga tuzatishlar kiritilgan.



Ushbu nusxada keltirilgan g‘azalda oxirgi baytlarning ikkinchi misralari o‘rin almashgan holda yozilgan va kotib tomonidan tuzatish kiritilgan. G‘azalning tabdili:

Zikr qading chamanda demishlar urub chanor,
Afsus nechasin boshig‘a sarvi beqaror.

Suv sen yuzingni vasfini yuz til bila o‘qur,
Qo‘yg‘il qadam chaman sari nargisdur intizor.


Bir ko‘rmayin vasfini visol gulin amr bog‘ida,
Hajr ilkidin ko‘zumda erur dasta-dasta xor.

U sofdin qadingg‘a yetkardim libos man,
Tab’ daqiq ikina ulula tor amr va tor.

Shabnam emas gul uzra xijolat xuyi erur,
Ko‘rub yuzung bu rang ila gul o‘ldi sharimsor.

Hajr tashingdin o‘tdi bu umrum la’y bila,
Umrumni mashriqidin ajal aqshomi duchor

Bir ko‘rmayin visol kunin qo‘rqaram to‘lur
Darbor aylabon chu sirishkin Fanoyi zor.




Ushbu 5 baytli g‘azalda ham bu holatni kuzatish mumkin. Matla va ikkinchi baytning ikkinchi misralari almashib qo‘llangan va bu xatolik kotib tomonidan tuzatilgan. G‘azalning tabdili:

Jilva farsoliq ayla, ul gul etar men zori noz,
Ko‘zguchin aksi ruxsori qilib gulshani taroz.

Ko‘nglum o‘ti toza o‘lmish qatra-qatra ashkdin,
O‘ylar ohingdek ki, suv yetgach dog‘i yopmish kudoz.

Ishtiyoqim hadi afzun dardim andindur fuzun,
Mehri yo‘qtur zarracha lutfi ham ondin ozdur oz.

Ishqi dardi muhlik ermish gar Fano dildordin,
Soyadek tufroq aro pomol o‘lub eldin niyoz.



Devonda shunday holat ham borki, she’r noto‘g‘ri yozilgan lekin tuzatilmagan. muxammas janriga mansub ushbu she’r bandli she’rlar qatoriga kiradi va u besh misradan iborat bo‘lishi kerak. Lekin ko‘rinib turganidek, oxirgi beshinchi misra muxammas keyingi bandining uchinchi misrasi bo‘lib yozilib ketilgan. Kotib tomonidan hech qanday tuzatish ko‘rsatilmagan. Devonni o‘rgangan yana bir tadqiqotchi ruchka yordamida uni to‘g‘rilab ketgan. To‘g‘ri hech bir ish xatoliksiz, kamchiliksiz bo‘lmaydi. Devon yozish ham kotibdan katta mahorat talab qiladi. Shuning uchun ham kotibning boshqa o‘rinlarda bunday xatoliklarga yo‘l qo‘ymasdan bu devonni mahorat bilan kitobat qilganligini ta’kidlash joizdir.

Turkiy devonning qo‘lyozmalari turli xil kotiblar tomonidan ko‘chirilganligini hisobga olsak, kotiblar devon tuzish an’analariga to‘liq bir xilda rioya qilganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuning uchun ularning har biri tahlil qilinishi lozim. Ushbu to‘rtta devon (7025/II, 7015/V, 1030/III, 910/II) ham basmaladan boshlanadi, undan so‘ng qora siyohda hamd g‘azal, undan keyin na’t g‘azal yozilgan va g‘azallarning barchasi alifbo tartibida joylashtirilgan.

Mumtoz adabiyotimizda shunday qoida bor: “ *qo‘lyozma devonlar devon tuzish an’anasiga (debocha tuzish tartibiga, janrlar to‘liqligiga) to‘liq rioya qilinishi lozim…* ammo Fano turkiy devonlarining hech birida debocha uchramaydi. Debocha faqat forsiy devonlariga yozilgan. Bundan shoir nazarida turkiy va forsiy devon bir butunlikni tashkil qilgan deb taxmin qilish mumkin.

Turkiy devonlarga kiritilgan g‘azallarning alifbo tartibidagi joylashuvini quyidagi jadval asosida ko‘rsatish mumkin:

Alifbo harflari	7015/V	7025/II	1030/III
ا	10	10	10
ب	6	6	8
پ	-	-	-
ت	3	3	4
ث	4	4	4
ج	1	1	1
چ	2	2	2
ح	2	2	2

Alifbo harflari	7015/V	7025/II	1030/III
خ	-	-	1
د	5	5	6
ذ	1	1	1
ر	10	10	10
ز	7	7	8
ژ	-	-	-
س	4	4	3
ش	5	5	5
ص	3	3	3
ض	3	3	3
ط	2	2	2
ظ	1	1	1
ع	3	3	3
غ	3	3	3
ف	3	3	3
ق	5	5	5
ک	-	-	-
گ	6	6	8
ل	6	6	6
م	6	6	9
ن	7	7	7
و	4	4	4
ه	9	9	9
ی	10	10	10
Jami:	131	131	140

Fano devonining barcha nusxalarida g‘azallar alifbo tartibida joylashtirilgan hamd va na’t g‘azallar bilan boshlanadi. 1030/III raqamli nusxa boshqalariga nisbatan biroz keyin yozilganligi uchun Fanoning ko‘proq g‘azallari kiritilgan bo‘lishi mumkin. Ushbu qo‘lyozma tarkibidagi turkiy devonda harflarning nuqtalari ba’zi o‘rinlarda qo‘yilmaganligi, xati kichik yozilganligi she’rlarning o‘qilishini bir muncha qiyinlashtiradi. Unvon qismi yo‘q. Lekin poygir boshqa devonlar kabi bu devonda ham mavjud. Kolofon qismi ham berilgan.

Tadqiqot ishining asosiy obyekti hisoblangan 7015/V raqamli qo‘lyozma tarkibidagi turkiy devon boshqa nusxalariga nisbatan mukammal va o‘qish uchun ancha qulaydir. Har bir sahifaning tugashida poygir berilgan. Xati chiroyli va tushinarli, harflarning nuqtalari o‘z o‘rnida qo‘yilgan. Ba’zi she’rlarning boshlanishida janr nomi berib o‘tilgan, bu holat

esa janrni oson ajratish imkonini beradi. Devonning kolofon qismi ham mavjud.

Yuqoridagi ikki devon nusxasini matniy-qiyosiy jihatdan tahlil etishda matniy farqlarni aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

7015/V raqamli qo‘lyozma	1030/III raqamli qo‘lyozma
Devonning 2-g‘azali	Devonning 2-g‘azali
Yo man latif lutfing omla **a’to** Ul kunki xon mag‘firati derdukung **aslo**.	Yo man latif lutfing omla **alhudo** Ul kunki xon mag‘firati derdukung **salo**
Devonning 4-g‘azali	Devonning 4-g‘azali
Kun nuridin yer ila **tog‘i** mutallo, Oy mash’alidin tun qilibon ko‘kni musaffo. Ziynat beribon toqi falak saqfini har kun, Chun qubbayi **ko‘kidin** etib oni mujallo. Aqli kul o‘lub mohiyating dargiga qosir, **Zoting** o‘lub ayb ila har nuqus mubarro. Maqsudi nihon beruya mushkulki tafakkur, Hal qilsa oni **ayla hal qil** bu muammo. Ismingni qilibdur bu Fano dardu, lekin, Idrok **qilolmaz** na ekan asli musammo.	**Ko‘z** nuridin **etti yer ila to dog‘i** mutallo, Oy mash’alidin tun qilibon ko‘kni musaffo. Aqli kul o‘lub mohiyating dargiga qosir, **Zotingdin** o‘lub ayb ila har nuqus mubarro Maqsudi nihon beruya mushkulki tafakkur, Hal qilsa oni **jahd ila qil hal** bu muammo. Ziynat beribon toqi falak saqfini har tun, Chun qubbayi **kavkabdin** etib oni mujallo. Ismingni qilibdur bu Fano dardu, lekin, Idrok **qilolmas** aylagan asli musammo.
Devonning 5-g‘azali matlasi	Devonning 5-g‘azali matlasi
Ey zot, sharifing o‘lubon boisi **ashno,** Yo‘q ersa **bo‘lunmas** edi kavnayin chu paydo.	Ey zot, sharifing o‘lubon boisi **ashyo,** Yo‘q ersa **bo‘lunmaz** edi kavnayin chu paydo.
Devonning 5- g‘azali 4- bayti	Devonning 5- g‘azali 4- bayti
Hijroningga qolib mahi xurshid chidolmay, Tun-u kun yurubon **asir etib** gunbazi mino.	Hijroningga qolib mahi xurshid chidolmay, Tun-u kun yurubon **sayr edub** gunbazi mino.
Devonning 6-g‘azali matlasi	Devonning 6-g‘azali matlasi
Zihi mahbub hur-u ayn oning shavqidadur shaydo, Firoqida erur sargashta tun-u kun gunbazi **mino.**	Zihi mahbub hur-u ayn oning shavqidadur shaydo, Firoqida erur sargashta tun-u kun gunbazi **xazro.**
Devonning 6-g‘azal maqtasi	Devonning 6-g‘azal maqtasi
Fano gulzor **tabi’ ichra lutfung** yomg‘urin yog‘dur, Riyoz ko‘ngli o‘lsun sabzayi guldin chaman bayro.	Fano gulzor **ichra tub’i lutfing** yomg‘urin yog‘dur, Riyoz ko‘ngli o‘lsun sabzayi guldin chaman bayro.
Devonning 7-g‘azal maqtadan oldingi bayti	Devonning 7-g‘azal maqtadan oldingi bayti
Chu meroj aqshomida xok poyi markabing g‘ulmon, Oni chun surma aylab **ko‘zlarig‘a ko‘b sano** paydo.	Chu meroj aqshomida xok poyi markabing g‘ulmon, Oni chun surma **aylab ko‘zina bo‘ldi ziyo** paydo.
Devonning 8- g‘azal matlasi	Devonning 8- g‘azal matlasi
Ul oyning shavqida har kim boshi uzra tushub **g‘avg‘o**, Tamanno aylamas bir zarracha mehri jahon aro.	Ul oyning shavqida har kim boshi uzra tushub **savdo,** Tamanno aylamas bir zarracha mehri jahon aro.

Ushbu faslda Mirzo Siddiq Fano devon qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tahlili asosida o‘zbek mumtoz adabiyoti matnshunosligining muhim muammolaridan biri ya’ni asarning eng ishonchli matn variantini tiklash masalasi yoritildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, devonlar turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarda saqlanib qolgan bo‘lib, ular orasida matniy tafovutlar, bayt va misralarning almashishi, qo‘shimcha va tushirib qoldirish holatlari, shuningdek, kotib xatoliklari keng uchraydi.

Tahlil jarayonida 7025/II, 7015/V va 1030/III raqamli qo‘lyozmalar qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning har biri matn shakllanishining turli bosqichlarini aks ettirishi aniqlandi. Xususan, 7015/V nusxa nisbatan mukammal va matniy jihatdan barqaror variant sifatida ajralib tursa, 1030/III nusxa g‘azallar sonining ko‘pligi va ayrim imlo murakkabliklari bilan keyingi davrda kengaytirilgan variant ekanligini ko‘rsatadi. 7025/II nusxa esa muallif hayotlik davriga yaqinligi deb taxmin qilindi.

Shuningdek, qo‘lyozmalarda kotiblarning matnga erkin yondashuvi natijasida yuzaga kelgan xatoliklar va ularning ba’zilarining tuzatilgani yoki tuzatilmay qolganligi matnshunoslik nuqtai nazaridan muhim kuzatuv hisoblanadi. Bu holat har bir qo‘lyozma faqat muallif matni emas, balki tarixiy-madaniy jarayon mahsuli ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Mirzo Siddiq Fano devonlari ustida olib borilgan matniy-qiyosiy tadqiqotlar ularning eng ishonchli matnini aniqlash, muallif ijodiy maqsadini tiklash hamda ilmiy-tanqidiy nashr tayyorlash uchun zarur asoslarni yaratadi. Bu esa o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligi rivojida muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fano. Devon. Qo‘lyozma. O‘zFASHI. Asosiy fond.1030/III.

2. Fano. Devon. Qo‘lyozma. O‘zFASHI. Asosiy fond.7025.

3. Jo‘raboyev, O. (2016). Mumtoz adabiyotda mug‘anniynoma. “Tamaddun” nashriyoti.

4. Jo‘raboyev, O. (2009). Qo‘qon shoirlarining Alisher Navoiy g‘azallariga muxammaslari va unga nisbat berilgan ayrim g‘azallar. O‘zbek tili va adabiyoti.

5. Mirzayeva, N. (2021). Fanoning mug‘anniynoma janridagi asari haqida.

6. Shodiyev, E. (2020). Navoiy va Fanoiy. 7-son. Toshkent.

7. Qayumov, P. (2006). Tazkirat ush-shuaro. 2-kitob. Toshkent.